

“RO‘YXATGA OLINGAN”

Toshkent viloyati Olmaliq shahri
Davlat xizmatlari markazi
tomonidan 2025 yil 7 avgustdagi
48-752-18-son bilan

“TASDIQLANGAN”

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining
2025 yil 4 avgustdagi navbatdan tashqari
umumiy yig‘ilishi qarori bilan

“OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI”

aksiyadorlik jamiyati

(“Olmaliq KMK” AJ)

USTAVI

(yangi tahrirda)

I.JAMIYATNING NOMLANISHI, JOYLASHGAN YERI VA YURIDIK MAQOMI

1.1. Jamiyatning nomlanishi:

1.1.1. To'liq firma nomi:

- davlat tilida: “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati;
- rus tilida: Акционерное общество «Алмалыкский горно-металлургический комбинат»;
- ingliz tilida: “Almalyk Mining and Metallurgical Complex” joint-stock company.

1.1.2. Qisqartirilgan firma nomi:

- davlat tilida: “Olmaliq KMK” AJ;
- rus tilida: АО “Алмалыкский ГМК”;
- ingliz tilida: “Almalyk MMC” JSC.

1.2. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 10 fevraldagi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinatini aksionerlik jamiyatiga aylantirish to'g'risida”gi 71-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasining 1997 yil 19 maydagi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinatini (OKMK) ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish to'g'risida”gi 86 k-PR-sonli buyrug'iga asosan tashkil etilgan.

1.3. “Olmaliq KMK” AJ (*keyingi o'rinlarda – Jamiyat*) yuridik shaxs hisoblanadi va o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Ustav asosida amalga oshiradi.

1.4. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomini olgan.

1.5. Jamiyat o'zining mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi hududidagi va undan tashqaridagi bank muassasalarida belgilangan tartibda hisob varaqlari va boshqa hisobvaraqlar ochish huquqiga, o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan va joylashgan eri ko'rsatilgan yumaloq muhriga ega. Muhrda bir vaqtning o'zida Jamiyatning firma nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

1.6. Jamiyat o'zining nomi va joylashgan eri yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

1.7. Jamiyat o'z mustaqil balansida hisobga olingan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

1.8. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlari o'z mulkida o'z asosiy jamiyatining ovoz beruvchi aksiyalariga ega bo'lishga haqli emas.

1.9. Jamiyatning joylashgan yeri va pochta manzili: 110100, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Amir Temur ko'chasi, 53-uy.

1.10. Jamiyatning rasmiy veb-sayti va elektron pochta manzili: www.agmk.uz, info@agmk.uz.

II.JAMIYAT FAOLIYATINING ASOSIY VAZIFALARI, YO'NALISHLARI VA MAQSADI

2.1. Jamiyat faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

2.1.1. Mineral xom-ashyo bazasini kengaytirish, rangli va nodir metallar rudalari yangi konlarini o'zlashtirish sohasida tog'-kon sanoatini yuritish, foydali qazilmalarni olish va ularni kelgusida qayta ishlashni tashkillashtirishning zamonaviy usullari tatbiq etilishini ta'minlashga, rangli va nodir metallarni chuqur qayta ishlash asosida eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini kuchaytirishga yo'naltirilgan yagona texnik siyosatni amalga oshirish;

2.1.2. Ishlab chiqarishning yuqori barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat mahsulotlarining eksport hajmlarini oshirish maqsadida, shu jumladan mahsulotlar sotiladigan yangi bozorlarni o'zlashtirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini pasaytirish va sifatini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish hisobiga tarkibiy islohotlarni, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni yanada chuqurlashtirish;

2.1.3. Yangi yuqori texnologik korxonalar qurilishi va ishga tushirilishini, yangi ish o'rinlari yaratilishini, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari samaradorligi va shaffofligini kuchaytirishga qaratilgan loyihaviy boshqaruvning zamonaviy usullari tatbiq etilishini nazarda tutadigan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda investitsiyalar, shu jumladan chet el investitsiyalarining barqaror jalb etilishini ta'minlaydigan faol investitsiya siyosatini olib borish;

2.1.4. Ayrim turdagi mahsulotlar va xizmatlar importini bosqichma-bosqich qisqartirish maqsadida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, import o'rnini bosish va ichki bozorni kerakli mahsulotlar va butlovchi buyumlar bilan ta'minlash jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlaridan ustuvor foydalanish asosida tarmoqlararo sanoat kooperatsiyani kengaytirish;

2.1.5. Ilmiy-tadqiqot ishlarini, shu jumladan rangli, qimmatbaho, nodir metallar va qattiq qotishmalar sohasida amaliy tadqiqotlar dasturlarini bajarish doirasidagi ishlarni tashkillashtirish, yangi texnologiyalar va innovatsiya loyihalarini ishlab chiqishda va ishlab chiqarishga tatbiq etishda ishtirok etish;

2.1.6. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va dasturiy mahsulotlarni keng joriy etish, ushbu asosda boshqaruv samaradorligi oshirilishini, ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxi kamaytirilishini, uning raqobatbardoshligi, shuningdek Jamiyat moliya-xo'jalik faoliyatining shaffofligi kuchaytirilishini ta'minlash;

2.1.7. Jamiyatning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, texnik-muhandislar va boshqaruv kadrlar malakalarini oshirish, kooperatsiyani oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim va ilmiy muassasalar bilan kuchaytirish orqali ularning qayta tayyorlanishini tashkillashtirish, qattiq raqobatchilik sharoitlarida tarmoqning samarali faoliyat yuritishini ta'minlay oladigan yosh va iste'dodli mutaxassislarini jalb etish.

2.2. Jamiyatning faoliyat maqsadi daromad olish hisoblanadi. Jamiyat shuningdek, o'z faoliyatini quyidagi maqsadlarda amalga oshiradi:

2.2.1. Kon va metallurgiya ishlab chiqarishi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

2.2.2. Eksportga mahsulotlar sotish va yetkazib berish bozorlarini kengaytirish, buyurtmalar portfelining shakllantirishini va mahsulotning kafolatlangan sotilishini ta'minlash;

2.2.3. Investitsiyalarni keng joriy qilish, ilg'or chet el firmalari va kompaniyalari bilan birga zamonaviy texnologiyalar negizida va yangi raqobatli afzalliklarni ta'minlaydigan qo'shma ishlab chiqarishlar va korxonalar tashkil qilish;

2.2.4. Jamiyat tarkibiga kiradigan barcha tarkibiy bo'linmalarning umumiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;

2.2.5. Ilmiy-texnika siyosati ishlab chiqish va amalga oshirish, texnika va texnologiyalarning yangi progressiv turlarini joriy qilish;

2.2.6. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, yanada yuqori darajada qayta ishlanadigan va qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni o'zlashtirish;

2.2.7. Tarmoq va tarmoqlararo kooperatsiyani kengaytirish asosida olib kelinayotgan import mahsulotlarining nomenklaturasini qisqartirish;

- 2.2.8. Asosiy ishlab chiqarishni lokalizatsiyalashni chuqurlashtirish va mahsulot ishlab chiqarishdagi import qismlarni kamaytirish;
- 2.3. Jamiyatning asosiy faoliyati rangli, qimmatbaho, noyob va boshqa metall rudalarini qazib chiqarish va boyitish bo'yicha ishlab chiqarishni tashkil qilish, tozalangan mis, rux metali, qimmatbaho va noyob metallar va ularning qotishmalarini, oltingugurt kislotasi, boshqa turdosh oraliq mahsulotlarni ishlab chiqarish hisoblanadi.
- 2.4. Jamiyat faoliyatining sohasiga yana quyidagilar kiradi:
- 2.4.1. Tarkibida rangli va qimmatbaho metallar mavjud bo'lgan ikkilamchi resurslar va chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash;
- 2.4.2. O'zbekiston Respublikasi korxonalaridan kelib tushayotgan, shuningdek, xorijdan import bo'yicha kelib tushayotgan xom-ashyoni qayta ishlash;
- 2.4.3. Ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik, loyiha-izlanish, geologik-qidiruv ishlarini amalga oshirish;
- 2.4.4. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini, qo'riqlash, yong'indan avtomatik tarzda xabar berish va telekuzatuv tizimlarini, ma'lumotlar berish tarmoqlarini loyihalash, montaj qilish, sozlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish;
- 2.4.5. Kislorod, azot, argon, karbonat kislota va propan ballonlarini ta'mirlash va texnik ko'rikdan o'tkazish;
- 2.4.6. Yuk va yo'lovchilarni avtotransportda va temir yo'lda tashish;
- 2.4.7. Portlovchi moddalar va portlaydigan vositalarni ishlab chiqish, ishlab-chiqarish, etkazib berish;
- 2.4.8. Portlatish ishlarini olib borish;
- 2.4.9. Qurilish materiallari, konstruksiyalari va mahsulotlari, jumladan qurilish va oq (*portland*) sement ishlab chiqarish;
- 2.4.10. Turli diametrdagi mis quvurlari ishlab chiqarishni tashkil etish va sotish;
- 2.4.11. Ishlab chiqarish, texnik maqsadlarga mo'ljallangan materiallar, tovarlar va mahsulotlarni saqlash, omborxonalarga joylash sohasidagi xizmatlarni ko'rsatish;
- 2.4.12. Umumiy ovqatlanish shahobchalarini tashkil qilish;
- 2.4.13. Yordamchi qishloq xo'jaliklarini, shirkatlarni rivojlantirish, jamoaviy bog'dorchilik, polizchilik, o'rtoqchiliklarni rivojlantirishga ko'maklashish;
- 2.4.14. Aloqa, telefonlashtirish, televidenie, shuningdek, lokal kompyuter tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish;
- 2.4.15. Ta'mirlash-qurilish, qurilish, qurilish-montaj, avariya oid ishlarini, yong'in va radiasiya xavfsizligini ta'minlash ishlarini olib borish, jumladan, radioizotop jihozlarni montaj qilish, ishga tushirish va ularga texnik xizmat ko'rsatish;
- 2.4.16. Tog'-kon va metallurgiya tarmoqlarida maxsus texnologik liniyalar va asbob-uskunalarini, metall konstruksiyalar, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatlarini montaj qilish va sozlash ishga tushirish, sanitariya-texnik, elektromontaj, izolyasiya va kimyoviy himoya ishlarini bajarish, ishlab chiqarish ob'ektlari, transport va muhandislik infratuzilmalarini qurish;
- 2.4.17. Tog'-kon va metallurgiya tarmoqlarida tasdiqlangan dasturlar, shuningdek, hududiy rivojlanish dasturlari doirasida "to'liq tugatib topshirish" usulida qurilish, montaj va maxsus ishlarning barcha majmuini amalga oshirish;
- 2.4.18. Xalq iste'moli mahsulotlari, shuningdek, tikuv mahsulotlari va shaxsiy himoya vositalarini ishlab chiqarish;
- 2.4.19. Ishlab chiqarish-texnik maqsadlarga mo'ljallangan turli xildagi mahsulotlarni, jumladan, quymalardan nostandart asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish;
- 2.4.20. Keng assortimentli tovarlarning ulgurji va chakana savdosini amalga oshirish, o'zining ulgurji, tijorat, oziq-ovqat, universal do'konlari va supermarketlari tizimini tashkil qilish;
- 2.4.21. Aholiga barcha turdagi maishiy xizmatlarni ko'rsatish;

2.4.22. Reklama faoliyati, mijozlar buyurtmasiga asosan reklama mahsulotlarini ishlab chiqarish;

2.4.23. Lizing va ijara;

2.4.24. Issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish va sotish;

2.4.25. Kon-kapital ishlarni amalga oshirish;

2.4.26. Uy-joy kommunal va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatish;

2.4.27. Qishloq xo'jalik, chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va sotish;

2.4.28. Ishlab chiqarilgan mahsulot, ishlar va xizmatlarni, shuningdek, xalq iste'moli mollari, oziq-ovqat mahsulotlarini qonunchilikda o'rnatilgan tartibda ishlab chiqarish va sotish;

2.4.29. Televidenie va bosma nashrlar orqali aholini korxona, shahar, viloyat, respublikaning ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan voqealari haqida xabardor etish;

2.4.30. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

2.4.31. Dam olish uylari va maskanlari, davolash-sog'lomlashtirish muassasalari, maktabgacha ta'lim, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, madaniy va dam olish bog'lari, attraksionlar va aholiga ijtimoiy va madaniy xizmat ko'rsatadigan boshqa muassasalar ishini tashkil etish;

2.4.32. Texnika, texnologiya va boshqa sohalardagi "nou-xau"larni mamlakat ichkarisida va chet ellarda sotish va sotib olish;

2.4.33. Respublika hududida va chet ellarda ko'rgazma, kim oshdi savdolari va boshqa shunga o'xshash tadbirlarni tashkil etish va ularda qatnashish;

2.4.34. Qimmatli qog'ozlar bozorida investisiya faoliyati;

2.4.35. Korxona mablag'lari hisobidan, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar hisobidan shartnoma asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish;

2.4.36. Nodir va noyob metallarni ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida amaliy tadqiqotlar va yangi ishlanmalarni olib borish, nodir va noyob metallardan, yarim mahsulotlardan, qotishmalardan va boshqa yuqori texnologik mahsulotlardan foydalanish bo'yicha zamonaviy ilg'or texnologiyalarni faol o'rganish va tadbiq etish.

2.4.37. Berilgan kimyoviy va fazaviy tarkibli sof metallar, qotishmalar va kompozision kukunlar olish orqali nodir va noyob metallarni qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarish va sanoat asosida o'zlashtirish.

2.4.38. Volfram, molibden ishlab chiqarish, nodir va noyob metallarga chuqur qayta ishlov berish va ulardan ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan buyumlar, qattiq qotishmali asboblari, kimyoviy katalizatorlar, kompozit materiallar va yuqori qo'shilgan qiymatli boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish.

2.4.39. Tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan sanoat yarim mahsulotlarni va buyumlarini ishlab chiqargan holda, nodir va noyob metallarni chuqur qayta ishlashni, shuningdek respublikaning boshqa korxonalaridan olinadigan nodir va noyob metallar yarim mahsulotlarini qayta ishlashni ta'minlash.

2.4.40. Ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan, qishloq xo'jaligida er unumdorligini oshirish maqsadida foydalaniladigan fosforit mineral o'g'itlarini ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo bo'lgan yuvib kuydirilgan fosforit konsentrati va fosforit uni mahsulotlarini ishlab chiqarish.

2.4.41. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan ta'qiqlanmagan va ushbu Ustavda nazarda tutilgan asosiy yo'nalishlari, vazifalari va maqsadlariga mos keladigan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish.

III. JAMIYATNING USTAV FONDI

3.1. Jamiyatning ustav fondi aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

3.2. Jamiyatning ustav fondi Jamiyat mol-mulkinging Jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

3.3. Jamiyat oddiy aksiyalar bilan birga imtiyozli aksiyalarni joylashtirishga haqli.

3.4. Jamiyat ustav fondining miqdori **717 618 613** (*yetti yuz o'n yetti million olti yuz o'n sakkiz ming olti yuz o'n uch*) **dona** aksiyalarga bo'lingan **2 808 759 251 282,0** (*ikki trillion sakkiz yuz sakkiz milliard yetti yuz ellik to'qqiz million ikki yuz ellik bir ming ikki yuz sakson ikki*) **so'mni** tashkil qiladi hamda, shu jumladan:

- **davlat ulushi – 98,74 foiz**, ya'ni jami **2 773 540 171 234** (*ikki trillion yetti yuz etmish uch milliard besh yuz qirq million yuz yetmish bir ming ikki yuz o'ttiz to'rt*) **so'mlik**, **708 620 381 dona** oddiy aksiyalarga bo'lingan;

- **jismoniy va yuridik shaxslar ulushi – 1,26 foiz**, **35 219 080 048,00** (*o'ttiz besh milliard ikki yuz o'n to'qqiz million sakson ming qirq sakkiz*) **so'mlik**, **8 998 232 dona** imtiyozli aksiyalarga bo'lingan (*joylashtirilgan*).

3.5. Jamiyatning ustav fondi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan qonunchilikda va ushbu Ustavda belgilangan tartibda ko'paytirilishi mumkin.

3.6. Jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan qonunchilik talablariga rioya qilgan holda kamaytirilishi mumkin.

IV. JAMIYATNING AKSIYALARI, OBLIGASIYALARI VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLARI

4.1. Jamiyatning qimmatli qog'ozlarini chiqarish, ro'yxatdan o'tkazish, joylashtirish va ular bo'yicha hisob-kitob, shuningdek, aksiyalarga bo'lgan huquqlarning o'tish tartibi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va ushbu Ustav bilan aniqlanadi.

4.2. Jamiyat aksiyalarni, obligasiyalarni va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan ta'qiqlanmagan boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga haqli.

4.3. Jamiyat har birining nominal qiymati **3 914 so'm** bo'lgan egasining nomi yozilgan oddiy va imtiyozli **717 618 613 dona** naqdsiz aksiyalarni chiqarishni amalga oshirgan, jumladan:

- **708 620 381 dona** egasining nomi yozilgan **oddiy** aksiyalar;

- **8 998 232 dona** egasining nomi yozilgan **imtiyozli** aksiyalar.

4.4. Jamiyat joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda nominal qiymati **3 914 so'm** bo'lgan **216 378 519 donadan** iborat, jami **846 905 523 366 so'mlik** e'lon qilingan **oddiy** aksiyalar hamda **157 469 062 dona** **616 333 908 668 so'mlik imtiyozli** aksiyalar joylashtirish huquqiga ega.

4.5. Jamiyat qonunchilikka muvofiq korporativ obligasiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli. Jamiyat tomonidan korporativ obligasiyalarini chiqarish Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

4.6. Jamiyat aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek, pul bahosiga ega bo'lgan huquqlar (*shu jumladan, mulkiy huquqlar*) orqali amalga oshiriladi. Qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga haq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanadi.

4.7. Jamiyat tomonidan aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning joylashtirilishi quyidagi ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin:

- qimmatli qog'ozlarni xususiy yo'sinda joylashtirish (*ommaviy e'lonlar va reklama kampaniyasini o'tkazmasdan, avvaldan ma'lum bo'lgan soni cheklangan investorlar o'rtasida yopiq obuna*);

- qimmatli qog'ozlarni ommaviy yo'sinda joylashtirish (*reklamadan foydalangan holda soni cheklanmagan investorlar o'rtasida ochiq obuna*).

4.8. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega bo'ladilar.

4.9. Jamiyat o'zi joylashtirgan aksiyalarini aksiyadorlar umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan Jamiyat ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek, ularni keyinchalik qonunchilikda belgilangan me'yor va cheklovlarni hisobga olgan holda olishga xaqli.

Aksiyalar to'lovi ularni sotib olish vaqtida, milliy valyutadagi pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi.

Imtiyozli aksiyalarni sotib olish, Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan, biroq uning nominal qiymatidan kam bo'lmagan narxda amalga oshiriladi.

4.10. Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirishni va maydalashni amalga oshirishga xaqli. Bunda ushbu Ustavga Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

V.JAMIYAT DIVIDENDLARI

5.1. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (*yoki*) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar to'lash to'g'risidagi qaror tegishli davr tugagandan so'ng uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ushbu Ustavda dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli.

Moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra (*oraliq*) dividendlar jamiyat Kuzatuv kengashi yoki aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra bo'nak sifatida to'lanishi mumkin. Moliyaviy yil yakuni bo'yicha dividend hisoblanishida bo'nak sifatida to'langan oraliq dividendlar inobatga olinadi.

5.2. Dividendlarni to'lash manbai bo'lib, Jamiyatning soliqqa tortilgandan so'ng qolgan foydasi (*Jamiyatning sof foydasi*) hisoblanadi. Jamiyatning sof foydasi Jamiyat buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

5.3. Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Bitta imtiyozli aksiyaga to'lanadigan dividend miqdori aksiya nominal qiymatining 25 foizini tashkil qiladi.

5.4. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

5.5. Oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividend miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishida belgilanadi.

5.6. Agar yil yakuni bo'yicha oddiy aksiyalarga to'lanadigan dividend miqdori imtiyozli aksiyalarga to'lanadigan dividend miqdoridan ko'p bo'lsa, imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lovlar aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan birmuncha yuqori foiz stavkalarida to'lanishi mumkin.

5.7. Jamiyat etarli miqdorda foydaga ega bo'lmagan yoki zarar ko'rgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiyatning faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan zahira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida ham to'lanishi mumkin.

Dividend pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari bo'yicha dividendlarini qimmatli qog'ozlar bilan to'lashga yo'l qo'yilmaydi.

5.8. Dividendning miqdori, shakli, to'lash muddati va tartibi Jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasiga asosan, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Bunda, dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas, to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

5.9. Dividend olish huquqiga, aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishdan uch kun avval shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan aksiyadorlar ega.

VI. JAMIYATNING FONDLARI

6.1. Jamiyat tomonidan sof foyda hisobiga Zahira fondi va qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa fondlar tashkil qilinadi.

6.2. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning Zahira fondi Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligasiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallangan. Zahira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas. Zahira fondi jamiyat ustav fondining **25 foizi** miqdorida shakllantiriladi.

Jamiyat har yili, miqdori ushbu Ustavda belgilangan miqdorga etguniga qadar sof foydaning **5 foizidan** kam bo'lmagan miqdorda Zahira fondiga majburiy ajratmalarni amalga oshiradi. Zahira fondi qisman yoki to'liq sarflanganda majburiy ajratmalar tiklanadi.

6.3. Jamiyat boshqa fondlarining tarkibi, maqsadi, shakllantirish manbalari Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

VII. AKSIYADORLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Jamiyat aksiyadorlari qonunchilikka muvofiq huquqlarga egadirlar.

7.2. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etish, shuningdek dividendlar olish, Jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq Jamiyat mol-mulkining bir qismini olish huquqiga ega.

7.3. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda va ushbu Ustavda nazarda tutilgan hollardan tashqari, aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqiga ega emas.

Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etadilar. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Jamiyat Ustaviga imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklaydigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalar hal etilayotganda ovoz berish huquqini oladilar.

Imtiyozli aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki dividendlarni to'liq to'lamaslik to'g'risida qaror

qabul qilingan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan keyingi yig'ilishdan boshlab aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'ladilar. Imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi mazkur aksiyalar bo'yicha dividendlar birinchi marta to'liq miqdorda to'langan paytdan e'tiboran bekor qilinadi.

7.4. Jamiyatning imtiyozli aksiyalarini oddiy aksiyalarga ayirboshlash mumkin emas.

7.5. Imtiyozli aksiyalar o'z egalariга dividendlarni olishda va Jamiyat tugatilayotganda uning mulki taqsimlanishida birinchi navbatda ishtirok etish imtiyozli huquqni beradi.

Jamiyat tugatilayotganda imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan qiymat (*tugatilish qiymati*) imtiyozli aksiyalar nominal qiymatining **100 foizini** tashkil qiladi.

Taqsimlanayotgan mulkning miqdori Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan oshgan hollarda, imtiyozli aksiyalar egalari oddiy aksiyalar egalari olayotgan mulkning qiymatigacha qo'shimcha to'lov oladilar.

7.6. Aksiyadorlar o'z huquqlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali amalga oshirishlari mumkin. Vakil sifatida uchinchi shaxs, boshqa aksiyador, shuningdek Jamiyatning mansabdor shaxsi ishtirok etishi mumkin. Vakilni tayinlash tartibi qonunchilikka asosan aniqlanadi.

7.7. Aksiyadorlar, jumladan, minoritar aksiyadorlar ham ovoz berishda ularning birgalikdagi pozitsiyasini shakllantirish uchun aksiyadorlik bitimini tuzish huquqiga egadirlar.

7.8. Aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli sotib olish huquqiga egadirlar.

7.9. Aksiyadorlar ushbu Ustav va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadirlar.

7.10. Aksiyadorlarning huquqlari qonunchilik, shuningdek, Jamiyat boshqaruv organlari tomonidan ushbu Ustavda belgilangan majburiyatlarini bajarish yo'li bilan himoya qilinadi.

7.11. Jamiyat aksiyadorlari o'z huquqlarini amalga oshirganlarida quyidagi majburiyatga egadirlar:

- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va ushbu Ustav qoidalariga rioya qilish;
- Jamiyat yoki uning faoliyati to'g'risidagi xizmat, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni oshkor qilmaslik;
- o'z xatti-harakatlari bilan Jamiyatga zarar va uning mavqeiga putur etkazmaslik;
- Jamiyat boshqaruv organlari qarorlariga O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, ushbu Ustav va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlarida nazarda tutilgan me'yorlarda amal qilish;
- boshqa aksiyadorlarning huquqlarini va qonun bilan himoyalangan manfaatlarini buzmaslik;
- qonunchilik va Jamiyat ustaviga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

7.12. Aksiyador o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi depozitariyni o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilishi shart.

7.13. Jamiyat aksiyalarining 50 va undan ortiq foizi egasiga aylangan shaxs, agar u bungacha Jamiyat aksiyalariga egalik qilmagan yoki aksiyalarining 50 foizdan kamrog'iga egalik qilgan bo'lsa, qolgan aksiyalar egalariга aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha o'ziga sotishlari

borasidagi taklifni 30 (*o'ttiz*) kun ichida e'lon qilishi shart. Aksiyaorning o'ziga tegishli aksiyalarni sotishi to'g'risidagi yozma roziligi e'lon qilingan kundan e'tiboran 30 (*o'ttiz*) kun ichida olingan taqdirda, Jamiyatning 50 va undan ortiq foiz aksiyalari egasi mazkur aksiyalarni sotib olishi shart.

7.14. Aksiyaador (*aksiyaadorlar*) da'vo arizasini sudga ko'rib chiqish chog'ida Jamiyatdan va guvohlardan sud tomonidan ko'rib chiqilayotgan ishga taalluqli bo'lishi mumkin bo'lgan barcha hujjatlarni olishga haqli, bundan davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi hujjatlar mustasno.

VIII.JAMIYATNING BOSHQARUV TUZILMASI

8.1. Quyidagilar Jamiyatning boshqaruv organlari hisoblanadilar:

8.1.1. Aksiyaadorlarning umumiy yig'ilishi – Jamiyatning oliy boshqaruv organi;

8.1.2. Kuzatuv kengashi – Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi organ;

8.1.3. Boshqaruv – Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiluvchi kollegial ijroiya organi,

8.1.4. Ijroiya organining rahbari: Boshqaruv raisi Jamiyatning kundalik faoliyatiga tezkor rahbarlikni amalga oshiradi.

8.2. Quyidagilar Jamiyatning nazorat qiluvchi organlari hisoblanadilar:

8.2.1. Jamiyatning Ichki audit xizmati – Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari ishini nazorat qilishni va baholashni amalga oshiradi;

8.2.2. Korporativ kotibiyat o'z faoliyatini Jamiyatning ijro etuvchi organidan mustaqil ravishda ushbu Ustav va Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida amalga oshiradi.

Korporativ kotibiyat o'z huquq va vakolatlari doirasida Jamiyat aksiyaadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarini qonunchilikda va Jamiyatning korporativ hujjatlarida, shuningdek Jamiyat Kuzatuv kengashi va aksiyaadorlari umumiy yig'ilishining qarorlarida belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta'minlashga mas'uldir.

Korporativ kotibiyat Jamiyat Kuzatuv kengashiga va aksiyaadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beradi.

8.3. Minoritar aksiyaadorlar qo'mitasi – minoritar aksiyaadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil qilinadigan organ.

8.4. Jamiyat aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan holda faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolaridan tarkib topgan Audit qo'mitasi tashkil etiladi. Jamiyatning Ichki audit xizmati o'z faoliyatida Audit qo'mitasiga hisobdordir.

Qo'mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi jamiyatning kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

IX.AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI

9.1. Aksiyaadorlarning umumiy yig'ilishi – Jamiyatning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

9.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi aksiyaadorlarning umumiy yig'ilishi raisi hisoblanadi, u yig'ilishlarni olib boradi va bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uzrli sabablarga ko'ra yig'ilish raisi vazifalarini bajarish imkoni bo'lmagan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq tayinlangan Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri yig'ilish raisi hisoblanadi.

9.3. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini (*aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini*) o'tkazishi lozim, bu yig'ilish moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi.

Aksiyadorlarning navbatdagi (*yillik*) umumiy yig'ilishi odatda har yilning may yoki iyun oylarida o'tkaziladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

9.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlar hisoblanadi.

9.5. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (*axborotning*) ro'yxati Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

9.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga quyidagilar kiradi:

1) Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

2) Jamiyatni qayta tashkil etish;

3) Jamiyatni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

4) qonunchilikka muvofiq Jamiyatning ustav fondini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish;

5) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

6) Jamiyatning ustav fondini aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yo'li bilan, aksiyalarning bir qismini ularning umumiy sonini qisqartirish maqsadida Jamiyat tomonidan sotib olish yo'li bilan, Jamiyat tomonidan sotib olingan va qayta sotib olingan aksiyalarni muomaladan chiqarish yo'li bilan kamaytirish, shuningdek, jamiyatning ustav fondini kamaytirish tartibini belgilash;

7) o'z aksiyalarini olish;

8) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, Ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (*tayinlash*) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

9) Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolarini saylash, shuningdek, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

10) Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilash;

11) Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

12) Jamiyat organlari (*Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi, kollegial ijroiya organi, Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi*) faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ichki hujjatlarni tasdiqlash, shu jumladan, Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolariga, boshqaruv organlari kotiblariga xaq to'lashning miqdori va tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash;

13) Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan masalalari yuzasidan, shu jumladan, Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi va

rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan Jamiyat Kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;

14) Jamiyatning yillik hisobotlari, yillik buxgalteriya hisoboti, jumladan, Jamiyatning foydalari va zararlarini to'g'risidagi hisobotlarini tasdiqlash;

15) auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to'lanadigan haqning eng ko'p miqdorini belgilash haqida qaror qabul qilish;

16) Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash, jumladan, moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi va (*yoki*) moliyaviy yil natijalariga ko'ra dividendlar to'lamaslik yoki to'lash (*e'lon qilish*) to'g'risida dividend miqdori, to'lash muddati, uni to'lash shakli va tartibini aniqlagan holda qaror qabul qilish;

17) imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 35-moddasida nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

18) Sanoq komissiyasining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash;

19) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash va aksiyadorlar umumiy yig'ilishini olib borish tartibini aniqlash;

20) qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

21) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

22) qonunchilikka muvofiq Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish (*qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish*), sotib olish (*qaytarib sotib olish*) narxini belgilash;

23) Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensasiyalarning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

24) O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda Jamiyat tomonidan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

25) Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

26) qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

9.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, ushbu Ustavning 10.10.-bandida Kuzatuv kengashining vakolatiga berilishi nazarda tutilgan masalalar bundan mustasno.

9.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

9.9. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qonunchilikka ko'ra vakolat doirasiga kiritilmagan masalalarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha qaror qabul qilishga haqli emas.

9.10. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori, Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik (*oddiy ko'pchilik*) ovozi bilan qabul qilinadi.

9.11. Soliqqa oid yoki davlat oldidagi boshqa qarzdorlik hisobiga jamiyat ustav fondidagi (*ustav kapitalidagi*) davlat ulushini shakllantirish yoki oshirish to'g'risidagi qaror jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining kamida uchdan ikki qismi egalari bo'lgan aksiyadorlarning (*davlatdan tashqari*) roziligi mavjud bo'lgan taqdirda, aksiyadorlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

9.12. Ushbu Ustav 9.6-bandining 1, 2, 3, 5, 13, 24-kichik bandlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik (malakali ko'pchilik) ovozi bilan qabul qilinadi.

9.13. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan umumiy yig'ilishni olib borish tartibi bo'yicha qaror qabul qilish tartibi "Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizomda belgilangan.

9.14. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar mazmuni, aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotning (*materiallarning*) tarkibi, shuningdek aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish tartibiga talablar qonunchilik va "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizom da belgilab qo'yilgan.

9.15. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (*aksiyador*) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin bir yuz ellik kundan kechiktirmay, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga, Jamiyat foydasini taqsimlash bo'yicha takliflar kiritishga hamda Jamiyat Kuzatuv kengashiga va Minoritar aksiyadorlar qo'mitasiga qonunchilikda nazarda tutilgan tartib va shartlarda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

9.16. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni me'yorlariga va "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizomga asosan amalga oshiriladi.

9.17. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi xuddi o'sha kun tartibi bilan e'lon qilinishi shart.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi xuddi o'sha kun tartibi bilan o'tkazilishi mumkin.

Kvorumni aniqlash, o'tkazilmay qolgan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'rniga aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazish O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 68-moddasining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi.

9.18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish shartlari, ovoz berish byulletenining shakli, shuningdek, ovoz berishda ovozlarni sanab chiqish tartibi va ovoz berish yakunlarini rasmiylashtirish tartibi qonunchilikka, "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizom va "Sanoq komissiyasi to'g'risida"gi nizomga muvofiq belgilab qo'yiladi.

9.19. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari, ovoz berish o'tkazilgan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi tuzilgandan keyin o'n kundan kechiktirmay ovoz berish yakunlari to'g'risidagi hisobotni chop etish yo'li bilan aksiyadorlar e'tiboriga etkaziladi.

9.20. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

9.21. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini chaqirish va o'tkazishning boshqa masalalari qonunchilik me'yorlari, Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan

tasdiqlanadigan “Aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi nizom va “Sanoq komissiyasi to‘g‘risida”gi nizom bilan tartibga solinadi.

X.JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

10.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni va ushbu Ustav bilan aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

10.2. Quyidagilar Jamiyat Kuzatuv kengashining a‘zosi bo‘lishlari mumkin emas:

- Jamiyat boshqaruvi a‘zolari va boshqaruv raisi, uning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (*kontrakt*) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a‘zolari;
- o‘z majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining a‘zosi maqomiga to‘g‘ri kelmaydigan faoliyatga aloqador shaxslar;
- Jamiyatda mehnat shartnomasi (*kontrakt*) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar.

10.3. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo‘yiladigan qo‘shimcha talablar, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori bilan belgilab qo‘yilishi va “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi nizomda aks ettirilishi mumkin.

10.4. Kuzatuv Kengashining a‘zolari 7 (*yetti*) kishidan iborat bo‘lib, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan uch yil muddatga saylanadi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga kamida 2 (*ikki*) nafar mustaqil a‘zo kiritilishi lozim, ushbu a‘zo har yili qayta saylanishi mumkin. Bunda nomzod ko‘rsatish hamda Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zosi bo‘yicha ovoz berish davlat vakillari tomonidan amalga oshiriladi.

10.5. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra, jamiyat Kuzatuv kengashining a‘zolariga ular o‘z vazifalarini bajarib turgan davr uchun aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlangan “Haq to‘lash” to‘g‘risidagi nizomga muvofiq haq to‘lanadi.

10.6. Jamiyat Kuzatuv kengashi faoliyatining tartibi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlanadigan “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi nizomda belgilab qo‘yiladi.

10.7. Kuzatuv kengashi Boshqaruvning:

- Jamiyat yillik biznes-rejasini bajarish, uning rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotni har chorakda eshitadi;
- Kuzatuv kengashi tomonidan ma‘qullangan bitimlarning ijro etilishi to‘g‘risidagi hisobotlarini ijro etilishi yakunlari bo‘yicha eshitadi.

10.8. Kuzatuv kengashi o‘z vakolatlarini amalga oshirish va o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun Jamiyat mutaxassislarini, shuningdek, auditorlik, baholash va boshqa tashkilotlarni shartnoma asosida jalb qilish huquqiga ega.

10.9. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;
- 2) Jamiyatning investisiya va ilmiy-texnika siyosatini aniqlash;
- 3) aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishlarini chaqirish, qonunchilikda va ushbu Ustavda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

4) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash, shuningdek, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish va unga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq masalalarni qonunchilikka muvofiq hal qilish;

5) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, qonunchilikda va ushbu Ustavda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

6) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

7) qonunchilikda nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

8) Jamiyat mol-mulkining bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

9) Jamiyatning boshqaruv a'zolarini (*raisdan tashqari*) tayinlash (*saylash*), bunda saralash asosidagi chet ellik menejerlar ishtiroki qoidasini belgilash, boshqaruv a'zolari vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, jamiyat nomidan jamiyat boshqaruvi raisi va boshqaruv a'zolari bilan tuziladigan shartnomani imzolash uchun vakolatli shaxslarni aniqlash;

10) Jamiyat Boshqaruvi raisi tomonidan o'z vazifalarini uzoq vaqt yoki noaniq davr mobaynida bajarish imkoniyati bo'lmagan, shuningdek har qanday asoslarga ko'ra, Boshqaruv raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan hollarda, Jamiyat Boshqaruvi raisi funksiyasini bajaruvchi Jamiyatning mansabdor shaxsini aniqlash;

11) Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

12) Jamiyat boshqaruv organlarining faoliyati tartibini belgilovchi ichki hujjatlarni tasdiqlash, tasdiqlanishi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan, shuningdek, ushbu Ustav va Kuzatuv kengashining qarori bilan Jamiyat ijroiya organi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan ichki hujjatlar bundan mustasno;

13) Jamiyat faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni Boshqaruvdan olish;

14) Jamiyatda affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish yoki yirik bitimlar mavjudligini, shuningdek, bunday bitimlarni tuzish bo'yicha qonun talablari va Jamiyatning ichki hujjatlariga rioya qilinishi nazorat qilish;

15) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Haq to'lash to'g'risida"gi nizomga muvofiq, Jamiyatning nazorat organlariga va boshqaruv organlari kotiblariga to'lanadigan haqlarning miqdorlarini belgilash;

16) Yillik hisobotni, yillik buxgalteriya hisob-kitobini, jumladan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni dastlabki tarzda tasdiqlash, dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

17) Jamiyatning Zahira fondidan foydalanish, shuningdek, Jamiyatning boshqa fondlarining miqdori, ularni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida qaror qabul qilish;

18) Jamiyatning filiallarini tashkil etish (*tugatish*) va vakolatxonalarini ochish (yopish);

19) Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

20) O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8 va 9-boblarida nazarda tutilgan hollarda bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilish;

- 21) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtirok etishi va ishtirokini tugatish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish;
- 22) Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitimlarni (*shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik*) tuzish to'g'risida qaror qabul qilish, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning balans qiymati yoki olinayotgan mol-mulkning qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortiq, lekin ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorini tashkil etsa;
- 23) Xizmat safarlariga, vakillik maqsadlariga, shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlariga to'lovlarni amalga oshirish, reklama, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, shuningdek, moddiy, homiylik, gumanitar va boshqa yordamlarni ko'rsatish, xayriya jamg'armalari va boshqa maqsadlarga badal to'lash uchun belgilangan me'yorlardan ortiq mablag'larni ajratish tartibi bilan bog'liq bo'lgan ichki foydalanish hujjatlari, uslubiy nizomlar, qo'llanmalar, tavsiyalar, normativlarni ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha Boshqaruvga topshiriqlar berish;
- 24) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining homiylik yordamini ko'rsatish to'g'risidagi qarorlarining (*Farmonlar, Qarorlar, Farmoyishlar, bayonnoma qarorlari, topshiriqlari va x.k.*) ijrosi bo'yicha qarorlar qabul qilish;
- 25) Jamiyat tomonidan korporativ obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligasiyalar chiqarish to'g'risida, shuningdek, Jamiyatning korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 26) Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haqning miqdorlarini "Haq to'lash (*rag'batlantirish*) to'g'risida"gi nizomga muvofiq belgilash;
- 27) Jamiyat Kuzatuv kengashi kotibini tayinlash;
- 28) Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlanishi lozim;
- 29) Tegishli masalalar buyicha Kuzatuv kengashi huzurida qo'mitalar (*ishchi guruhlar*) tashkil qilish.
- 30) Auditorlik tekshiruvini o'tkazish (*majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno*), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (*shartnomani bekor qilish*) to'g'risida qaror qabul qilish.
- 31) Kompluens nazorat xizmati rahbarini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi Nizomni tasdiqlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish.
- 32) Korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, jumladan boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun Korporativ kotibiyat tashkil etish.
- 10.10. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra quyidagilar Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilishi mumkin:
- Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish masalalarini, shuningdek Jamiyat Ustaviga Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;
 - aksiyalarni joylashtirish (*qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish*) narxini belgilash;
 - qimmatli qog'ozlar hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish.
- Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga qonunchilik va ushbu Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish ham kiritilishi mumkin.

Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyatning ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

10.11. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar, agar O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida va ushbu Ustavda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ushbu Ustavning 10.9.-bandi 24-kichik bandida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qarorlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqib ketgan a'zolar ovozi hisobga olinmaydi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda, Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Jamiyat Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

10.12. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zoliciga nomzodlar ko'rsatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10.13. Aksiyadorlar tomonidan Kuzatuv kengashini tashkil etish uchun nomzodlar ko'rsatilmagan yoki nomzodlarning miqdori kam ko'rsatilgan holda, Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z xohishiga ko'ra nomzodlar ro'yxatini shakllantirish yoki to'ldirish huquqiga ega.

10.14. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi, bunda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

10.15. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi (*qayta saylanadi*).

Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda, uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

10.16. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashi raisining tashabbusiga ko'ra, Kuzatuv kengashi, Ijroiya organi a'zosining, Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlarining (*aksiyadorning*), ushbu Ustavda belgilangan boshqa shaxslarning talabiga ko'ra, Kuzatuv kengashining tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq, shuningdek, Kuzatuv kengashining avvalgi majlislaridan birida aniqlangan keyingi majlisning sanasi (*muddati*) va kun tartibini inobatga olgan holda chaqiriladi.

Kuzatuv kengashi majlisi, zaruriyat tug'ilgan hollarda, biroq bir chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

10.17. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kворum Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining etmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni ushbu Ustavning 10.19.-bandida ko'rsatilgan asoslarga ko'ra 7 kishidan kamaygan holda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash

uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi chaqiriladi. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek, Jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

10.18. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi ham yuzma-yuz (*Kuzatuv kengashi a'zolarining birgalikda ishtirok etish yo'li bilan*) shaklda, ham sirtqi shaklda o'tkazilishi mumkin. Kuzatuv kengashining majlisi sirtidan ovoz berish yo'li bilan (*so'rov yo'li bilan*) o'tkazilgan taqdirda qarorlar Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

10.19. Jamiyatning ushbu Ustavida va/yoki qonunchilikka asosan Kuzatuv kengashining qarorlari Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi belgilangan hollarda, quyidagi Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozi hisobga olinmaydi:

- vafot etgan, bedarak yo'qolgan va muomalaga layoqatsiz deb topilgan;
- sog'lig'i tufayli, manfaatlar kelishmovchiligi ro'y berganda, shuningdek boshqa holatlarda yozma ravishdagi arizasiga ko'ra o'z ixtiyori bilan Kuzatuv kengashi a'zolidan chiqib ketayotgan shaxslar. Bunda chiqib ketish kuni Jamiyatga tegishli arizaning kelib tushgan kuni hisoblanadi;
- huquqni himoya qiluvchi organlarning qarorlari qonuniy kuchga kirishi munosabati bilan Kuzatuv kengashi a'zosi vakolati tugatilgan yoki to'xtatilgan shaxslar;
- hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa sabablarga ko'ra, o'z majburiyatini bajarish imkoniyati bo'lmagan shaxslar.

10.20. Kuzatuv kengashiga tayyorgarlik ko'rish va qabul qilingan qarorlarni rasmiylashtirish qonunchilik va "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom bilan belgilanadi.

XI. JAMIYATNING IJROIYA (*BOSHQARUV*) ORGANI

11.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish Boshqaruv raisi tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruvi ushbu Ustavga muvofiq uch yil muddatga tayinlanadigan (*saylanadigan*) 7 ta a'zodan tashkil topadi.

11.2. Jamiyat Boshqaruv raisi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylanadi va bu lavozimga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi, boshqaruv raisi o'rinbosarlari Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga asosan lavozimga tayinlanadi.

Boshqaruvni Boshqaruv raisi, u bo'lmagan taqdirda uning birinchi o'rinbosari yoki rais o'rinbosarlaridan biri boshqaradi.

11.3. Boshqaruv raisini ishga yollash to'g'risidagi shartnoma (*kontrakt*) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan tuziladi (*uzaytiriladi*) yoki tugatiladi (*to'xtatiladi*).

11.4. Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari bilan Jamiyat nomidan shartnoma Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi.

11.5. Jamiyat Boshqaruvi raisining vakolatlari muddatidan avval tugatilganda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxsni Kuzatuv kengashining qarori bilan tayinlanishiga, Boshqaruv raisi saylanadigan aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishida ko'rib chiqilgunga qadar yo'l qo'yiladi.

11.6. Jamiyat Boshqaruvi o'z faoliyatini qonunchilikka, ushbu Ustavga, shuningdek, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida tasdiqlangan "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizomga binoan amalga oshiradi.

11.7. Jamiyat Ijroiya organining vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini amalga oshiradi va tashkil qiladi.

11.8. Boshqaruv vakolati doirasiga shuningdek quyidagilar kiradi:

- Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini va ularni amalga oshirish bo'yicha istiqbolli rejalarni, shuningdek, Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini ishlab chiqish va Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim qilish;
- Jamiyatning daromadini va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida kundalik xo'jalik siyosatini tuzib chiqish va amalga oshirish;
- Jamiyatning biznes-rejasi asosida ishlab chiqilgan ishlab chiqarish dasturini shakllantirish va tasdiqlash, Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining ishlab chiqarish hajmini aniqlash;
- Jamiyatning ijtimoiy rivojlanish dasturini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalarni ko'rib chiqish va ishlab chiqish;
- ishchilarning mehnat muhofazasini ta'minlash va ekologiya talablariga rioya qilish;
- Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi muhokamasiga kiritiladigan masalalar bo'yicha axborotlar, materiallar va takliflarni tayyorlash;
- Jamiyatning biznes-rejasini va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining boshqa dasturlarini ishlab chiqish;
- Jamiyatning yillik ish istiqbollari, yillik balansi, foyda va zararlar haqidagi hisobotlar va boshqa kerakli hisobot hujjatlarini ishlab chiqish va Kuzatuv kengashiga taqdim qilish;
- foydani taqsimlash va zararni qoplash bo'yicha takliflarni Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga taqdim qilish;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida va Kuzatuv kengashida ularning vakolatlari doirasiga kiritilgan masalalar va hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilish uchun ko'rib chiqiladigan materiallarni tayyorlashda ishtirok etish;
- tijorat sirini (*maxfiy axborot hisoblangan*) tashkil qilgan ma'lumotlarning tarkibini va hajmini, ularni himoya qilish tartibini aniqlash;
- Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan yirik innovasiya va investisiya loyihalari va dasturlarini oldindan ko'rib chiqish;
- Bitimlarni (*shartnomalarni*) tuzish to'g'risida, Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitimlarni (*shartnomalarni*) tuzish to'g'risida qaror qabul qilish, agarda bunday bitimlarning (*shartnomalarning*) qiymati bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanaga Jamiyat buxgalteriya hisobotining ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan Jamiyatning sof aktivlari miqdorining **uch foizidan o'n besh foizigacha bo'lgan qiymatini tashkil etganda**;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining homiylik yordami ko'rsatish to'g'risidagi qarorlarini (*Farmonlari, Qarorlari, Farmoyishlari, bayonnoma qarorlari, topshiriqlari va h.k.*) ijro etish;
- Jamiyatning ichki tashkiliy va boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to'g'risidagi takliflarni tayyorlash va asoslash;

- Boshqaruv vakolat doirasiga taalluqli masalalar bo'yicha Jamiyat ichki hujjatlarini tasdiqlash;

- Boshqaruv raisi tomonidan Boshqaruvga ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan, Jamiyat kundalik faoliyatining boshqa masalalarini hal qilish.

11.9. Boshqaruv faoliyatiga rahbarlikni Jamiyatning Boshqaruv raisi amalga oshiradi.

Jamiyatning Boshqaruv raisi:

- Boshqaruv faoliyatini tashkil qiladi, Boshqaruv a'zolari o'rtasidagi vazifalarni taqsimlaydi, Boshqaruv tomonidan asoslangan va samarali qarorlar qabul qilinishini ta'minlaydi, Boshqaruv majlislarida raislik qiladi, ushbu Ustav, shuningdek "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizomda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qiladi;

- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, uning manfaatlarini ifodalaydi, shtatlarni tasdiqlaydi, Jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

- Bitimlarni (*shartnomalarni*) tuzish to'g'risida, jumladan, Jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitimlarni (*shartnomalarni*) tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi, agarda bunday bitimlarning (*shartnomalarning*) qiymati bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan sanaga Jamiyat buxgalteriya hisobotining ma'lumotlari bo'yicha aniqlangan Jamiyatning sof aktivlari qiymatining uch foizidan ortiq bo'lmasa;

- Jamiyatning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati uchun javob beradi;

- Jamiyatning kundalik faoliyatiga taalluqli bo'lgan, Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Kuzatuv kengashining va Boshqaruvining vakolati doirasiga kirmaydigan masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qiladi.

11.10. Jamiyatning Boshqaruv raisi:

- O'zbekiston Respublikasida va chet ellarda shartnomalar tuzish, bank va moliya operasiyalarini amalga oshirish, shuningdek bunday operasiyalarni amalga oshirish bo'yicha boshqa shaxslarga ishonchnomalar berish;

- Jamiyatning moliyaviy, investisiya, ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirilishini tashkil qilish;

- Jamiyatning mulki va vositalarini boshqarish;

- O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslariga nisbatan Jamiyat nomidan da'vo bo'yicha qaror qabul qilish;

- banklarda hisob, valyuta va boshqa varaqlarni ochish;

- Jamiyatning ijtimoiy rivojlanish masalalarini hal qilish;

- Jamiyat oldiga qo'yilgan masalalarni bajarish uchun boshqa funksiyalarni bajarish;

- mehnat qonunchiligiga muvofiq Jamiyatning ishchilar bilan mehnat munosabatida ish beruvchining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish;

- mehnat munosabatlari sohasidagi o'z funksiya va vakolatlarini kadrlar siyosatini amalga oshiruvchi o'rinbosari va tarkibiy bo'linma rahbarlariga taqsimlash;

- Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq Jamiyat ishchilari lavozim maoshlarining miqdorini belgilash, xodimlar mukofot pulining miqdorini aniqlash;

- Jamiyat Boshqaruv organlarining qarorlarini bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish;

- qonunchilik, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv tomonidan Boshqaruv raisiga yuklatilishi mumkin bo'lgan boshqa funksiyalarni bajarish.

11.11. Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolarining huquq va majburiyatlari qonunchilik, ushbu Ustav, Jamiyatning ichki hujjatlari va Jamiyat bilan tuzilgan shartnomalar bilan belgilanadi.

11.12. Boshqaruv majlislarini chaqirish va o'tkazish, uning qarorlarini qabul qilish va rasmiylashtirish tartibi, shuningdek, Boshqaruv a'zolarining javobgarligi "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizom bilan belgilanadi.

11.13. Boshqaruv a'zolari o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari shart, hamda ular qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

11.14. Aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etuvchi Jamiyat Boshqaruvi a'zolari vakillarning Jamiyat Boshqaruviga a'zolar saylash masalasi bo'yicha ovoz berish huquqiga ega emas.

11.15. Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari faoliyatining samaradorligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili tasdiqlanadigan eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (*KPI*) asosida baholanadi. Bunda, Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari faoliyatining keyingi hisobot yili uchun eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (*KPI*) va ularga erishish bo'yicha yo'l xaritalari rahbar va o'rinbosarlar uchun alohida choraklar kesimida ishlab chiqilib, Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullanganidan so'ng, tasdiqlash uchun har yili 15 dekabrqa qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi. Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlarini rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 13 martdagi PF-49-son Farmonida belgilangan tartibda ularning eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (*KPI*) natijalaridan kelib chiqib, jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarida va/yoki biznes-rejada belgilangan miqdorda amalga oshiriladi.

XII.MINORITAR AKSIYADORLAR QO'MITASI

12.1. Minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Jamiyatda Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi tashkil etilishi mumkin.

12.2. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining tarkibiga nomzodlar bo'yicha takliflar Jamiyatga Jamiyat Kuzatuv kengashiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish uchun nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda kiritiladi.

12.3. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasiga aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan minoritar aksiyadorlar orasidan **5 kishi** bir yil muddatga saylanadi.

12.4. Jamiyat Boshqaruvi raisi va a'zolari, shuningdek jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyatning qo'mita a'zolari tarkibiga kiritilishi mumkin emas. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga quyidagilar kiradi:

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki jamiyatning Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritilayotgan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzishga oid masalalar bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish;
- minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risida murojaatlar kiritish;
- qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqish.

12.5. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasiga nomzodlarni kiritish va uning a'zolarini saylash, shuningdek, ularni faoliyati tartibi Jamiyat tomonidan qonunchilik me'yorlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organiga tasdiqlash uchun taqdim qilinadi.

12.6. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolariga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra "Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi to'g'risida"gi nizomga muvofiq haq to'lanadi.

12.7. Minoritar aksiyadorlar qo‘mitasini ta‘minlash xarajatlari Jamiyat tomonidan qoplanadi.

XIII.JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

13.1. Jamiyatda Kuzatuv Kengashining qaroriga binoan, Kuzatuv kengashiga hisobdor bo‘lgan va o‘z faoliyatini qonunchilikka va jamiyat aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan, “Ichki audit xizmati to‘g‘risida”gi Nizomga binoan amalga oshiradigan ichki audit xizmati tuziladi.

Jamiyatning ichki audit xizmati jamiyatda ichki nazoratni, shu jumladan, ustav fondining 50 foizdan ziyod ulushi jamiyatga tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar bilan o‘tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

13.2. Jamiyat tashqi (mustaqil) nazoratni amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotini jalb qiladi, auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq jamiyat moliya-xo‘jalik faoliyatining tekshirilishini amalga oshiradi.

XIV.YAKUNIY QOIDALAR

14.1. Jamiyatda ish beruvchining vakilligi, Jamiyatning mansabdor shaxslari tomonidan, ularga mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik, Jamiyatning lavozim yo‘riqnomalari, buyruqlari, ishonchnomalar va boshqa lokal hujjatlari bilan belgilangan o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

14.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini ta‘minlash maqsadida xayriya va boshqa beg‘araz yordam ko‘rsatish uchun xarajatlar amalga oshirilgan holatlardan (*Farmonlar, Qarorlar, Farmoyishlar, bayonnoma qarorlari, topshiriqlaridan*) tashqari, Jamiyatning boshqa xayriya va beg‘araz yordam (*shu jumladan, xayriyehson, sovg‘a qilish, homiylik yordami*) ko‘rsatish uchun har yilgi xarajatlari Jamiyat tomonidan o‘tgan yil uchun olingan sof foydaning 3 foizidan ortiq bo‘lmasligi kerak va o‘tgan hisobot yili uchun Jamiyat biznes-rejasining foyda qismi ko‘rsatkichlari bajarilgan hollarda amalga oshiriladi.

14.3. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi va o‘z vakolatlari doirasida Kuzatuv kengashi tomonidan mazkur Ustavga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar O‘zbekiston Respublikasining tegishli davlat organida belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi.

14.4. Jamiyat Ustaviga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e‘tiboran kuchga kiradi.

14.5. Agar O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo‘llaniladi.